



• ***Kitoblar  
dunyosiga  
sayohat.***




## **Kitoblar bizga nima uchun kerak?**

- Ma'naviy olamingiz, dunyoqarashlaringizni boyitmoqchimisiz?
- Fikrlaringizning teran va boshqalarnikidan ajralib turishini istaysizmi?
- Fikrlaringizni to'laqonli yetkazib berolmayabsizmi?
- Insonlar ko'p joylarda nutq so'zlashdan qo'rqasizmi?
- Nutqingiz ravon va go'zal bo'lishini istaysizmi?

**Unda sizga yagona yordan bu kitoblardir!**



## **O'qish yangi va noyob fikrlar tug'ilishiga yordam beradi**



**Mutolaa bizni fikrlashga chorlaydi. Ba'zan, orzularimiz ham biz o'qigan, xursand qilgan kitob bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek, mutolaa bizning dunyoqarashimizni boyitadi. Inson o'qish orqali yangi fikrlar va yorqin g'oyalar oladi. Inson o'zi bilmagan holda ilhomlanib o'qishi, yangi va o'zgacha fikrlar yuzaga kelishiga turtki beradi.**

# O'qish inson fikrini jamlaydi va diqqat markazini oshiradi.

Mutolaa jarayonida, o'qigan hikoya va asarga butun diqqat-e'tibor qaratiladi. Inson boshqa ishlardan ko'ra kitobga ko'proq diqqat qiladi. Inson miyasi bir vaqtning o'zida turli faoliyatlar bilan shug'ullana olmaydi. Shu sababli ko'p o'qigan odamning diqqatini bir joyga to'plash ancha oson kechadi.




# **O'qish tasavvurni oshiradi.**



**Biz o'zimizga notanish bo'lgan joylar haqida o'qiganimizda, idrokimiz tasavvurlarimiz ishga tushib tasvirlarni miyamizda yarata boshlaydi va shu orqali xotiramizda tasvirlar saqlanib boradi. Binobarin, idrokimizning tasavvur qilishi va yaratuvchanligi kitob o'qish orqali mustahkamlanib boradi.**

# **O'qish chet tilini o'rganishni osonlashtiradi.**

**Xorijiy tilni o'rganayotgan  
kishi o'sha tilning  
adabiyotlarini muntazam  
o'qishi orqali o'sha tilni  
qisqa fursatda o'zlashtirishi  
mumkinligi olimlar  
tomonidan isbotlangan.**



**Birgalikda kitob o'qish ota-onalar va bolalarning o'zaro munosabatlarini yaxshilaydi. Inson o'z farzandini kitob mutolaasiga o'rgatar ekan, avvalo o'zi ham bu ishda o'rnak bo'lishi kerak.**



**Psixologlar birgalikda kitob o'qish jarayonida ota-onalar va bolalar o'rtasida o'ziga xos munosabat o'rnatiladi deb hisoblashadi. Ularning aytishlaricha, bunday munosabat birgalikda televizor ko'rganda aslo paydo bo'lmasligini ta'kidlashmoqda.**



- **Kitob stressdan qutulishning eng samarali usulidir.**
- **Qog'oz kitoblarda elektron kitoblarga nisbatan tasavvur kuchi yuqoriroq bo'ladi.**



- Eng qimmatli vaqtingizni arzon narsalarga sarflab qo'ymang!
- Ko'zingizning nurini sog'ligingiz uchun zararli mobil qurilmalarga emas, ma'naviy olamingizni sog'lom qiluvchi kitoblarga sarflang.





